



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2025- yil  
yanvar


*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


(2025- yil yanvar)

71,5




**Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da**

908,7



**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda**

72,3



**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da**




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



# Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)

2025- y.

71,5 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

62,1 %

2021- y.

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar)

75,0 %


2025- y.

Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.

60,3 %

## Soni, birlikda.



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

64,7 % (1-fevral holatiga ko'ra)



2025- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



56,6 %

Soni, birlikda




Soni, birlikda

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar)


2025




2024




2023



2022



2021



2025- y.

69,6 %



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


59,1 %



2021- y.


## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2025- yil yanvar)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2024-y.y. yanvar oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024- yil yanvar oylari hajmi va 2025- yil yanvar oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

### Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	<b>3 114,6</b>	<b>100,0</b>	<b>111,7</b>
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	844,8	38,7	112,9
Xonobod sh.	47,1	2,2	111,7
Oltinko'l	88,7	4,1	109,0
Andijon	124,5	5,7	110,0
Baliqchi	110,7	5,1	112,4
Bo'ston	37,3	1,7	109,5
Buloqboshi	67,4	3,1	111,6
Jalaquduq	94,4	4,3	112,3
Izboskan	104,9	4,8	111,5
Ulug'nor	31,6	1,4	109,2
Qo'rg'ontepa	107,7	4,9	111,8
Asaka	143,4	6,6	111,3
Marhamat	86,1	3,9	112,0
Shahrixon	117,0	5,4	111,4
Paxtaobod	83,4	3,8	110,5
Xo'jaobod	93,7	4,3	112,1

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025- yil yanvar)




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,3** foizni, shu jumladan, **35,1** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2025- yil yanvar)







## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


### Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3 114,6</b>	<b>100,0</b>	<b>111,7</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	134,3	4,3	116,5
Moliyaviy xizmatlar	516,7	16,6	129,0
Transport xizmatlari	545,5	17,5	107,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	524,7	16,8	109,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	708,4	22,7	109,9
Savdo xizmatlari	599,4	19,2	108,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	63,9	2,1	105,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	98,3	3,2	111,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	59,6	1,9	112,5
Ijara xizmatlari	54,0	1,7	100,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	72,0	2,3	108,9
Shaxsiy xizmatlar	129,5	4,2	105,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,9	0,6	74,8
Boshqa xizmatlar	113,2	3,6	108,6




# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



**2025-yilning yanvar oyida** xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **22,7** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **98,6** %.

## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>

**2025- yilning yanvar** oyida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **72,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2025- yil yanvar)



Andijon viloyati	599,4	+8,4
Andijon shahri	189,1	+8,7
Asaka	40,9	+7,6
Andijon	32,7	+4,8
Qo'rg'ontepa	32,1	+7,2
Oltinko'l	30,6	+6,5
Shahrixon	26,7	+7,8
Xo'jaobod	25,6	+8,4
Baliqchi	22,6	+6,0
Jalaquduq	22,4	+7,3
Marhamat	21,3	+8,1
Izboskan	18,0	+8,8
Paxtaobod	17,3	+5,9
Buloqboshi	15,7	+7,4
Xonobod shahri	13,8	+10,4
Bo'ston	11,9	+5,7
Ulug'nor	6,1	+5,3

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,2** foiz.

Andijon viloyatida transport xizmatlari hajmi **545,5** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi **7,9** foiz darajasida qayd etildi.

## Hududlar kesimida transport xizmatlari (2025- yil yanvar)

Andijon viloyati	545,5	+7,9
Andijon shahri	242,1	+6,2
Baliqchi	32,1	+7,1
Asaka	23,2	+5,2
Izboskan	20,0	+7,0
Marhamat	19,6	+11,4
Paxtaobod	18,4	+6,4
Shahrixon	18,2	+6,3
Andijon	17,6	+5,3
Oltinko'l	15,1	+7,4
Qo'rg'ontepa	15,1	+7,2
Xo'jaobod	15,0	+5,7
Jalaquduq	14,3	+6,1
Buloqboshi	13,3	+6,7
Xonobod shahri	9,5	+1,6
Bo'ston	5,4	+7,6
Ulug'nor	5,3	+5,4

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙ O'sishi, % da



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar)



## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd so'mda)

Andijon viloyati	516,7
Andijon shahri	165,1
Andijon	35,1
Baliqchi	33,8
Asaka	33,5
Izboskan	32,4
Shahrixon	30,6
Qo'rg'ontepa	28,6
Jalaquduq	26,3
Xo'jaobod	24,4
Buloqboshi	20,9
Oltink'ol	20,4
Paxtaobod	19,8
Marhamat	16,9
Ulug'nor	10,2
Bo'ston	9,8
Xonobod shahri	9,1

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2025- yil yanvar % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025- yil yanvarida 81,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon viloyatining ulushi **16,6** foizni yoki **516,7** mlrd so'mni tashkil etdi. **2024- yilga** nisbatan ushbu hududda yuqori o'sish sur'ati **126,0** foiz darajasida qayd etildi.



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2025- yilning yanvar** oyidagi ulushi **82,6 %** ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025- yil yanvar)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Andijon viloyati	134,3	+16,5
Andijon shahri	48,9	+19,8
Asaka	7,9	+17,1
Shahrixon	6,9	+14,5
Oltink'ol	6,9	+16,0
Jalaquduq	6,7	+16,2
Marhamat	6,5	+16,5
Andijon	6,0	+16,6
Qo'rg'ontepa	5,6	+16,1
Xo'jaobod	5,5	+15,9
Paxtaobod	5,1	+15,7
Baliqchi	4,1	+15,2
Izboskan	3,9	+15,0
Buloqboshi	3,6	+14,8
Bo'ston	2,4	+14,3
Xonobod shahri	1,9	+14,9
Ulug'nor	1,1	+16,4


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



2025-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **98,3** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **108,7 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2025- yil yanvar mlrd so'mda)

<b>Andijon viloyati.</b>	<b>98,3</b>
Andijon shahri	33,2
Andijon	10,1
Asaka	7,1
Shahrixon	6,2
Qo'rg'ontepa	4,5
Paxtaobod	3,8
Izboskan	3,8
Xo'jaobod	2,6
Jalaquduq	2,6
Marhamat	2,5
Baliqchi	2,0
Buloqboshi	1,7
Ulug'nor	1,5
Oltinko'l	1,3
Xonobod shahri	0,7
Bo'ston	0,6




Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Andijon shahriga to'g'ri keladi. **2025-yilning yanvar** oyi davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **33,2** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **33,8** foizini tashkil etdi.



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)

2025- yil yanvar oyida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **59,6** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ini tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>59,6</b>	<b>+12,5</b>
Andijon shahri	16,4	+13,8
Asaka	3,6	+10,4
Qo'rg'ontepa	2,3	+10,2
Shahrixon	2,3	+11,7
Jalaquduq	2,0	+11,3
Marhamat	2,0	+10,3
Izboskan	1,8	+10,0
Andijon	1,7	+9,9
Baliqchi	1,5	+12,8
Paxtaobod	1,3	+8,1
Xo'jaobod	1,2	+10,1
Xonobod shahri	1,1	+12,4
Buloqboshi	0,9	+11,6
Oltink'ol	0,8	+11,0
Ulug'nor	0,5	+10,7
Bo'ston	0,5	+10,6





# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar) <sup>1)</sup>



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **89,7** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2025- yil yanvar)


Andijon viloyati	63,9	+5,1
Andijon shahri	18,8	+7,8
Asaka	5,0	+5,4
Shahrixon	3,4	+4,2
Izboskan	3,2	+4,7
Xo'jaobod	3,2	+5,0
Andijon	3,1	+7,7
Marhamat	2,6	+4,0
Jalaquduq	2,6	+3,1
Xonobod shahri	2,5	+2,2
Qo'rg'ontepa	2,5	+2,2
Paxtaobod	2,5	+3,8
Baliqchi	2,3	+4,6
Buloqboshi	2,0	+4,4
Oltink'ol	1,9	+4,3
Bo'ston	1,3	+2,4
Ulug'nor	0,7	+5,1

<sup>1)</sup> включая нераспределенные объемы по регионам

■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

## Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar)<sup>1)</sup>



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2025- yil yanvar, mlrd so'mda)



**2025-yilning yanvar** oyida ijara xizmatlari hajmi **54,0** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **82,8** foizni tashkil etadi.


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar)<sup>1)</sup>



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 15,8 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi, % da



# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd so'mda)

Andijon viloyat	19,9
Andijon shahri	10,1
Asaka	1,1
Xo'jaobod	1,0
Paxtaobod	0,9
Andijon	0,8
Marhamat	0,8
Qo'rg'ontepa	0,8
Shahrixon	0,7
Izboskan	0,5
Baliqchi	0,4
Buloqboshi	0,4
Jalaquduq	0,4
Oltinko'l	0,3
Ulug'nor	0,2
Xonobod shahri	0,2
Bo'ston	0,2



**2025- yilning yanvar** oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **19,9** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **50,9** foizni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.